



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Giyasova Shaxnoza Abdurafikovna

*Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Maktabgacha,
boshlang'ich va texnologik ta'lim kafedrasida o'qituvchisi
Tel: +998904518840, E-mail: Giasovasahnoza7@gmail.com*

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIGA O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHNI O'RGATISH METODIKASI

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirishda didaktik materiallardan foydalanishning amaliy ahamiyati yoritilgan. Ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda bilishga doir innovatsion texnologiyalardan foydalanish hamda ularni o'qish jarayonida tadbqiq etish haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: bilim, malaka, ko'nikma, qobiliyat, ijodkorlik.

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ФОРМИРОВАНИЮ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ

Аннотация: В статье освещаются подготовки учеников начальных классов к творческой деятельности. Согласно современным требованиям существуют ряд этапов творческой деятельности. Автор статьи предлагает рекомендации по улучшению подготовки к творческой деятельности. Среди них выделяются такие рекомендации как: необходимость учета личностных особенностей учеников, усиление воспитательной работы и др.

Ключевые слова: знания, навыки, умения, способности, творчество.

METHODOLOGY OF TEACHING FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS TO FORM STUDENTS' CREATIVE ABILITY

Annotation: The article deals with the questions of preparation of the innovative activities in the example. According to the contemporary requirements, several stages of innovative activities exist. The authors of the article propose recommendations on the improvement of preparation to the innovative activities. Among them, such

recommendations as; necessity of consideration of personal characteristics of pupils, string Honing of education worth and others can be Signified.

Keywords: knowledge, skills, abilities, abilities, creativity.

KIRISH. Kishilarning hayot, kun kechirish ehtiyoji qadimgi davrlardananoq bilimni yaratgan edi. Chunki hayot ehtiyojini qondirish uchun kishilar mehnat qilishga, biror ishni bajarishga, intilishga majbur bo‘ladilar va biror narsani ishlab chiqaradilar. Moddiy ishlab chiqarish esa, o‘z-o‘zidan oddiy bilimni talab etadi. Demak, ilmni kishining ehtiyoji keltirib chiqaradi va ilm ehtijoy uchun xizmat qiladi. Davrlar mobaynida ishlab chiqarish ehtiyoji ilm-ma’rifatning ahamiyatini oshirdi. Hazrat Alisher Navoiy ham shoh asarlar yaratdi va ularda ilg‘or g‘oyalarni ilgari surdi. Jumladan, ilm-fan, ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya masalasi doim diqqat markazida turdi. Tarixiy va siyosiy voqealar avj olgan davrda yashagan insonparvar shoir kishilarni aql-idrokka, xulq-odobga, ilm-ma’rifatga undaydi. O‘z asar qahramonlarini ilm va fanga intiluvchi, ta’lim-tarbiya olishga ishtiyoqi zo‘r, san’at va hunarda mohirlikka erishish uchun qunt qiluvchi, bilimdon, dono, san’atkor va hunar egasi bo‘lgan oliyanob kishilar qilib tasvirlashi bejiz emas edi. Navoiy xalqning bilimli bo‘lishini orzu qiladi. Ilm-fanni xalq orasida yoyishga katta ahamiyat beradi. Xalqning hamma vaqt ilm olishga intilishi, ilm-u ma’rifatdan bahramand bo‘lishi zarurligini ta’kidlaydi. “Bilim va donolik kishini bezatadi”, – deydi. Bilmaganni so‘rash ayb emasligi so‘ramaslik uyalish, orlanish zarar ekanligini uqtiradi:

Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim,

Orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim.

Mamalakatimiz Prezidenti o‘z ma’ruzalarida ta’kidlaganlaridek, “farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash” muhim ahamiyat kasb etadi [1; 103].

Mazkur muammoni hal etishda uzluksiz ta’lim tizimining asosiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lgan boshlang‘ich ta’lim, shuningdek, mazkur ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarning kasb malakasi va pedagogik mahorati muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Uzluksiz ta’lim tizimini mukammallashtirish O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Shu sababli O‘zbekiston respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunida shaxs rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilgan. Chunki ishbilarmon, o‘z bilim va imkoniyatlarini jamiyat taraqqiyotiga to‘liq sarflay oladigan, mustaqil fikrlaydigan, ijodiy faol mutaxassis yetishib chiqmas ekan, jamiyatda tub o‘zgarishlar bo‘lishi qiyin. Bugungi kunda respublikadagi har bir o‘quv dargohi o‘zining ta’lim tizimini mukammallashtirishga harakat qilmoqda. Yangi avlod darsliklarining yaratilishi, ta’limda reyting tizimining joriy etilishi, turli yo‘nalishlardagi nazoratlar, ta’lim jarayonida faol o‘qitish metodlaridan foydalanish va boshqa shu kabi tashkiliy ishlar amalga oshirilmoqda. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, har qanday ish uslubi joriy etilganda ham, o‘quvchi shaxsi, uning bilimga intilishi, mustaqil mushohada qilishi, ijodiy fikrlash imkoniyatlari asosiy muammo bo‘lib qolaveradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya mazmuni yangilanib bormoqdaki, "ijodiy qobiliyat" kategoriyasining keng talqin qilinishiga ehtiyoj tug'ilmoqda. Bu esa o'z navbatida: mustaqilligimizni his eta oladigan, o'zligini anglab yetadigan fuqorolarni tarbiyalash, jamiyat, davlat va oila oldidagi mas'uliyatni anglaydigan yetuk, aqlli, intellektual, kreativ fikrlaydigan shaxsni shakllantirish kabi vazifalarni qo'yadi. Bir qator olimlar: (S.I.Orlov, K.Mann, G.Kulyutkin, V.L. Leontyev) «Ijodiy qobiliyat – ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarga nostandart fikrlashga jalb etish, muntazam ravishda bu ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonidir» [5] deb hisoblaydilar. O'zbek olimasi V. Karimova ta'kidlashicha: "Qobiliyatlar- shaxsdagi shunday individual, turg'un sifatlarki, ular odamning turli xil faoliyatdagi ko'rsatkichlari, yutuqlarini ta'minlaydi" [3]

Bizning fikrimizcha, ijodiy qobiliyat bolaning yosh davridanoq shakllantirilishi va har tomonlama rivojlanishida tarbiyaning asos qirradi deb qaralishi lozim.

Fikrimizcha, ijodiy qobiliyat o'quvchilarning g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik hislatlarini shakllanishida muhim o'rin egallaydi.

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish yaxlit pedagogik jarayonda muhim o'rin tutadi. Bu jarayonning mohiyati, uning o'rni va rolini bolaning shakllanishi jarayonining umumiy tuzilishida aniqlash osonroq. O'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish o'zaro bog'liq ikki faoliyatni – tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Bu jarayonda bolaning ongi shakllana boradi, his-tuygulari rivojlanadi, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va ko'nikmalar hosil qilinadi.

Ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ulardan birinchisi, bolaning ko'p qirrali jarayonda ishtirok etishidir. Bunda tarbiya maskani, oila, jamoatchilik, mahalla, ommaviy axborot vositalari, bolalar teatri, adabiyot va san'at ishtirok etishi muqarrar.

Ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning muhim xususiyatlaridan biri, bolaning ijodiyotda turli qirralarini namoyish etishga yo'l ochib berish ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish deganda bolalarda tabiatdan berilgan aqliy kuchlar sezgilar, ruhiy holatlar, biluvchanlik va faoliyat erkinligini rivojlantirish natijasida insonda mustaqil fikr yuritib, oldiga maqsad qo'ya olish hamda ko'zlagan maqsadiga yetishish qobiliyati tushuniladi. Ingliz mutafakkiri Jon Lokk o'zining «Tabiat qonuni borasidagi tajribalar asarida» «Agar hissiyotdan aqlga narsalar qiyofasi yetkazib berilmasa, u holda tafakkur uchun hech qanday material berilmagan bo'ladi va aql bilishni taraqqiy ettirishi borasida tosh, yog'och, qum va hokazo qurilish materiallarisiz me'mor bino qurishda qanchalik ish qila olsa, shunchagina ish bajaradi» -, deb ta'kidlaydi [5].

ASOSIY QISM. Bolalarda bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan motivatsion qiziqish tomonlariga ko'proq e'tibor berish lozim. Ana shu bolalar bilan olib boriladigan ishning xarakterli xususiyati ular psixikasining ojiz tomonlariga passivlik bilan moslanish emas, balki o'quvchilar maksimal darajada voyaga yetishi uchun ularning aqliy rivojlanishiga aktiv ta'sir ko'rsatish prinsipi bo'lmog'i kerak. Tarbiyachi ayrim bolalarda o'zining o'rtacha ekanligi, qobiliyatsizligi va hatto mukammal emasligi haqida paydo bo'ladigan tasavvurga faollik bilan qarshilik ko'rsatishi lozim. Ta'lim bunday o'quvchilarning individual xususiyatlariga

muvoqilashmaydi, balki o'quvchining o'zi tobora tezlashib va murakkablashib borayotgan ta'lim protsessiga ko'proq moslashadi. Shunday ekan, zamonaviy pedagoglarning asosiy vazifasi barcha bolalarning qobiliyati maksimal darajada va har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlarni aniqlashdan iborat. Shu bilan bir qatorda muayyan sohalarida chuqur qiziqishni, moyilligi va qobiliyatini namoyon qilayotgan bolalarni ham aniqlash va ularga bundan keyingi rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish zarur.

Ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning yana bir xususiyati shundaki, bu jarayon ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lib, unda bolaning o'zi ham faol ishtirok etadi. O'quvchi tarbiyaning faqat ob'yektigina emas, balki atrof-dagi voqealarga ta'sir etuvchi sub'yekt hamdir. Shuning uchun tarbiyachi bolaning ichki imkoniyatlarini, istak va xohishlarini, intilishini, unga bo'layotgan boshqa ta'sirlarni, tashqi axborot manbaalarini hisobga olishi zarur. Bunda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradigan hamkorlik munosabatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijodkorlik faoliyatning turli holatlarida paydo bo'ladi. Qiziqish ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo'lishidan tortib, to namoyon bo'lishigacha jarayonini o'z ichiga oladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, har bir shaxsning ijodkorlik fazilatlarining shakllanishi aynan maktabda boshlanadi. Zero, maktabda turli salohiyat va qobiliyatga ega bolalar ta'lim oladi va bolalardagi ana shu layoqatni va salohiyatni rivojlantirish maktab o'qituvchilarining birinchi galdagi vazifasidir. Bolalardagi ijodiy qobiliyatning har qanday kurtaklari ta'lim-tarbiyadan tashqarida, faoliyatdan tashqarida kamol topa olmaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalardagi yashirin iste'dodlarni yuzaga chiqarish, kichik maktab yoshidan boshlab o'z faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratish, ulardagi ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish kelajakda yuksak salohiyatli, ijtimoiy faol, o'tkir zehqli, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oladigan raqobatbardosh kadrlarni voyaga yetkazish garovi bo'lib hisoblanadi. Bu davlatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri har tomonlama barkamol insonni voyaga yetkazish g'oyasiga mos keladi.

Bolaning ijodiy zakovatini o'stirish masalalari bugungi kunda salmoqli ahamiyatga ega bo'lib borishi bilan belgilanadi.

Huquqiy demokratik va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan borayotgan mamlakatimizda tarbiyaning vazifasi har tomonlama yetuk, erkin va mustaqil fikrga ega bu komil insonni va yetuk kadrlarni tarbiyalashdir. Demak, tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkoniyatini beradi.

Inson faoliyati—uning rivojlanishi uchun zarur sharoit bo'lib, uning jarayonida shaxs hayotiy tajribaga ega bo'ladi, atrof-olamni idrok etadi, ilmlarni o'zlashtiradi, malaka va ko'nikma hosil qiladi.

Hozirgi davrda zamonaviy texnika va texnologiyalarning hayotga kirib kelishi inson faoliyatida, ijtimoiy ongida katta o'zgarishlar bo'lishini taqazo etmoqda. Zero, olam to'g'risida va insonning hayotda tutgan o'rni to'g'risidagi tasavvurlari

o'zgaroqda, tafakkuri va olamni tushinishning yangi usullari shakllanmoqda, ma'naviy amaliy o'zlashtirishning yangi vositalari va usullariga o'tish yuz bermoqda.

O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida uning aqliy-intellektual, ijodiy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bu borada, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim jarayonida ijodiy qobiliyatini shakllantirish imkoniyatlari kengroq bo'lib hisoblanadi. Chunki boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning aqliy qobiliyati, diqqati fikrlash darajasi faol rivojlanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish o'ta dolzarb masala bo'lib hisoblanadi. Chunki kelajakda mamlakatimizning tayanchi bo'lgan yoshlarni har tomonlama kamol toptirishimiz, aql-zakovatlarini o'stirishimiz ko'p jihatdan maktab o'quvchilari bilan olib borayotgan ishlarimiz, tadbirlarimizga bog'liq. Shu jihatdan bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini tarbiyalash jarayoni Pedagogika fani kontsepsiyasi talablaridan kelib chiqqan holda yondashishni talab qiladi. Sharq mutafakkirlari ham o'zlarining didaktik asarlarida yosh avlodga puxta va mustahkam bilim berishda ularning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda aqliy qobiliyatini, ilmiy salohiyatini, iste'dodini takomillashtirishga e'tibor berganlar. Masalan, buyuk Jaloliddin Davoniy insonning aqliy qobiliyati, ilmiy o'quvi, iste'dodi, salohiyatini tarbiyalashda quyidagilarga e'tibor beradi:

Birinchisi - zukkolik. Zukkolikni tarkib toptirish uchun insonda natijaga erishishda tajriba va harakatchanlik talab etiladi. Ikkinchisi- fahm tezligi. Fahm tezligini tarbiyalashda inson diqqatini zarur va muhim narsalarga, ya'ni hal etilayotgan masalalarning ichidan eng muhimini ajratib olish qobiliyati. Uchinchisi - zehn o'tkirligi. Hal etilayotgan muammoni qiyinchiliksiz, oson yo'l bilan hal etish. To'rtinchisi- bilimlarni tez egallash qobiliyati. Bunda bilimlarni egallashda butun diqqatini o'rganilayotgan muammoga qaratish va uni o'zlashtirib olishga erishish. Beshinchisi - qo'yilgan muammoni tez anglab olishga butun diqqatini qaratish. Oltinchisi - o'rgangan bilimlarini esda saqlash qobiliyati. Yettinchisi - xotirani mustahkamlash qobiliyati.

Ko'rinib turibdiki, yuqoridagi ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga qaratilgan barcha ishlar faoliyatni ijodkorlikka yo'naltiradigan ilmiy bilish masalalari bilan bog'liq ekan. O'quvchilar ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda tizimli, maqsadga muvofiq, yangicha yondashuv asosida samarali natijalarga erishish mumkin. O'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda ta'limni insonparvarlashtirish, hamda differensial yondashuv, ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish va o'z-o'zini anglash, ta'limda tarixiy tajribalardan foydalanish kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni rivojlantirish o'ziga xos psixologik-pedagogik xususiyatga ega bo'lib, bular o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq holda muammoli vaziyatlar yaratish, mashg'ulotlarga maqsadli yondashuv, o'quvchilarning qobiliyati, qiziqishi, xohish va istaklarini hisobga olish, ahloqiy-estetik hissiyotini tarbiyalash, bilimlar tizimini, malaka va ko'nikmalarini faoliyatning turli shakl va metodlarini egallab olishga yo'naltiriladi. Ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, ulardan birinchisi, bolaning ko'p qirrali jarayonda ishtirok etishidir. Bunda tarbiya maskani,

oila, jamoatchilik, mahalla, ommaviy axborot vositalari, bolalar teatri, adabiyot va san'at ishtirok etishi muqarrar.

Ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning muhim xususiyatlaridan biri, bolaning ijodiyotda turli qirralarini namoyish etishga yo'l ochib berish.

Hozirgi davrda zamonaviy texnika va texnologiyalarning hayotga kirib kelishi inson faoliyatida, ijtimoiy ongida katta o'zgarishlar boshlanishini taqozo etmoqda. Zero, olam to'g'risida va insonning hayotda tutgan o'rni to'g'risidagi tasavvurlari o'zgarmoqda, tafakkuri va olamni tushinishning yangi usullari shakllanmoqda, ma'naviy-amaliy o'zlashtirishning yangi vositalari va usullariga o'tish yuz bermoqda.

Ta'limda ijodiy izlanishlar haqiqiy ilmiy nazariyaga, jamiyatning rivojlanish qonuniyatlariga, o'qitishning nazariy asoslari, shaxs rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchlari va uning shakllantirish sharoitlari to'g'risidagi bilimlarning keng tizimiga tayangan holdagina muvaffaqiyat qozonadi.

Biroq ichki munosabatlar, ular o'rtasidagi aloqalar doimiy va umumiy bo'lib qolaveradi. Ular faoliyat tizimini hosil qiluvchi asoslardir.

Ma'lumki, inson o'z g'oya, fikr, qarashlarini faqat faoliyat davomida amalda qo'llaydi va qayta yaratadi. Faoliyat – atrof olamga nisbatan insonning o'ziga xos faol munosabatidir. Chunki insonning hayotda namoyon bo'lishining muhim shakli uning voqea-hodisalarga bo'lgan faol ishtirokidir. Har qanday faoliyatda hayotiy tajriba to'planadi, insonda o'z atrofini o'rab olgan borliqni bilish jarayoni kechadi, ma'lum bilimlar egallab olinadi, malaka va ko'nikmalar hosil bo'ladi, natijada inson faoliyati rivojlanadi. Shaxs rivojlanishiga irsiyat, muhit, tarbiyaning ta'siri bilan birga unga faoliyatning ta'siri ham o'ta muhimdir. Faoliyat jarayonida inson shaxsining har tomonlama yaxlit rivojlanishini atrof olamga munosabati shakllanadi. Inson faoliyati maqsadga muvofiq amalga oshishi uchun uni to'g'ri tashkil etish va to'g'ri yo'naltirish lozim. Lekin ko'p hollarda shaxsning rivojlanishi imkoniyatlaridan foydalanilmaydi, tarbiyalanuvchilar ko'pincha ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatini faol tashkil eta olmaydilar, hayotda sust harakat qiladilar. O'quvchilar faoliyatining asosiy turlariga o'yin, o'qish, mehnatni kiritgan holda uning asosiy yo'nalishlarini bilish, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik, emotsional faoliyatlariga ajratish mumkin. Faoliyat faol va passiv bo'ladi, faqat faol faoliyat insonning barcha imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Bunday faoliyat insonda qoniqish hosil qiladi, inson kuch-quvvatga to'ladi.

O'qishda faollik ijtimoiy tajribalarni tezroq o'rganib, anglab olishga, kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishga, o'zini o'rab turgan atrof-olamga munosabatini shakllantirishga olib keladi. Bilish faolligi esa bolaning intellektual rivojlanishini ta'minlaydi. Mehnatda faollik shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishiga undaydi, uni yanada muvaqqiyatli mehnat qilishga yo'llaydi. Rivojlanayotgan shaxsni doimiy faollikka ancha murakkab va qiyin kechadi. Zero, o'quvchining turli yoshda uning faoliyati turlicha o'zgarib turadi. Shuning uchun bu borada maktabdagi ommaviy tadbirlar bilan birga har bir o'quvchining individual va yosh xususiyatlarini hisobga oladigan ishlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. "Inson qobiliyati va iste'dodi muvaffaqiyatlarga erishishining asosiy sharti ham insonning faolligidir" [3]. Chunki o'qituvchi qay darajada mahoratli bo'lmasin, agar

o'quvchining o'zi faol bo'lmasa, u muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Chunki o'qituvchi o'quvchini o'qitish jarayonida uni boshqarib boradi. Shuning uchun ham o'quvchi o'z faoliyatida o'ziga ahamiyatli bo'lgan, o'ziga jalb eta oladigan hayot mummolari bilan shug'ullana borib, ma'naviy va axloqiy jihatdan rivojlanadi.

XULOSA. Inson shaxsining har tomonlama kamol topishida, ularning bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishida, atrof-olamga munosabat shakllarini va xulqi, odob me'yorlarini egallab olishida faoliyatning o'rni katta. Har qanday faoliyat, maqsad, uslub, natija va jarayonlardan iborat bo'ladi. U bir tomondan jismoniy harakatlarga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan aqliy harakat vositasida ongda sodir bo'ladi. Mehnat, o'yin, o'qish inson faoliyatining asosiy turlari sanaladi.. Ana shular yordamida faoliyat rivojlanadi. Ijodkorlik esa sifat jihatdan yangi, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratuvchi inson faoliyati jarayoni bo'lib, u o'zida insonning mehnatda namoyon bo'lgan qobiliyatini ifodalaydi. Ta'limda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish vazifalaridan biri ham o'qishga bo'lgan ijodiy munosabatni tarbiyalashdir. Bilimlar tizimi, ko'nikma va malakalar, mustaqil fikrlash hamda ushbu bilimlarni amaliyotda qo'llay olingan sharoitda bunday faoliyat ijodiy faoliyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyiv Sh.M Buyuk kelajagimizni mard va oliyjonob xalqimiz bilan quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017 – B. 286.
2. Fayzullayeva G. S. P5BL VOSITASIDA O'QITUVCHILARDA KOGNITIV JARAYONLARNI FAOLLASHTIRISHNING ILMIY-METODIK TALQINI //FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI. – 2023. – C. 152-155.
3. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika. – T.: Fan, 2004. – B. 22-28.
4. Shermatov M. Muammoli ta'lim imkoniyatlari. – Maktabda o'zbek, rus tillari va adabiyoti, 1991. – №3. – B. 23-24.
5. Karimova V. Psixologiya. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. – 2002, – B.118.
6. Munavvarov A. Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 1997.
7. Vigotskiy L.S. Pedagogika va psixologiya, 2-jild. – 1991. – B. 376 – 390.
8. Amrilloevich I. A. COGNITIVE MOBILITY OF THE TEACHER: APPLICATION IN PEDAGOGICAL PRACTICE, CONTENT, ESSENCE AND STRUCTURE //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2021. – T. 1. – №. 1.5 Pedagogical sciences.